SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA “BOBURNOMA”NING G‘OYAVIY-BADIIY TALQINI

f.f.f.d (PhD) Ra’no Payzullayeva,

Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Maqolada shoir Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostonining syujetini Bobur ijodiy olamiga sayohat, ham shoir, ham shoh ulug‘ insonning hayotidagi eng muhim voqealarning asarlaridagi ifodasi, ularning mag‘zini chaqish va badiiy umumlashma xulosalar chiqarish tashkil etganligi xususidagi mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: doston, kompozisiya, syujet, “Boburnoma”, muqaddima, lirik qahramon, tahlil, g‘oyaviy maqsad.

Аннотация: В статье рассуждено и выведено из произведения Сирожиддина Саййида “Юз ох, Захириддин Мухаммад Бабур”, - сюжет поэмы, путешествие в творческом мире великого поэта, выражение событий из жизни великого царя.

Ключевые слова: Поэма, композиция, сюжет, лирический герой, анализ, идеологическая цель, “Бабурнаме” вступление.

Annotation: The article regards Sirojiddin Sayyid’s novel “Alas, a hundred times, Zakhiriddin Muhammad Bobur”, as insight into Bobur’s literature. It attempts to demonstrate important events in Bobur’s life both as a poet and a shakh in addition to helping comprehend their moral and drawing a common conclusion.

Tags: novel, composition, plot, “Boburnoma”, contents, protagonist, analysis, ideological aim.

Mumtoz adabiyotimizdagi doston janridan hozirgi dostonlar keskin farq qiladi. Hozirgi dostonlar hajman kichik, ammo tasvir qamrovi keng, epik tur talablariga to‘la javob beradigan, hozirjavob, jangovarlik xususiyatiga ega. E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, A.Oripovning “Hakim va ajal”, O.Matjonning “Ming bir yog‘du”, A.Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” va boshqa bir qancha

dostonlar o‘zbek adabiyotida doston janrining takomili va tadrijiy xususiyatlarini namoyon etadi.

Lirik tur janrlaridan biri hisoblangan doston janriy xususiyatlari ilmiy manbalarda yetarli darajada ko‘rsatib berilgan. Jumladan, “Adabiyot nazariyasi” darsligida u shunday ta’riflanadi:

“Epik va lirik xususiyatlarning birlashuvi natijasida doston janri tug‘iladi. Doston aslida epik asardir, ammo she’riy shaklda yozilishi uni ayni paytda lirikaga ham mansub etadi. Dostonning she’riy shaklda yozilishi faqat shaklga oid alomat emas, balki uning mazmunidagi ham o‘ziga xos xususiyatini aks ettiradi: dostonda, epos va dramadan farqli o‘laroq, lirizm alohida bir kuch kasb etadi”1.

Erkin Xudoyberdiyev mumtoz adabiyotimizda yaratilgan dostonlarning epiklik xususiyatlari haqida fikr yuritib, hozirgi yaratilayotgan liro-epik turga mansub she’riy janrni poema deb ataydi va unga quyidagicha izoh beradi:

“XX asr o‘zbek poemalari o‘zlarining realizmi, epik va lirik jihatlarning birikib ketishi, voqealarning ko‘lamliligi va tarixiy aniqligi, shaxs va xalq taqdiri qo‘shib ifodalanishi, muallif hamda qahramon g‘oyalarining o‘zaro bog‘liqlikda yuzaga chiqishi bilangina emas, balki kompozisiya va syujetni sozlash, obrazlarni tipiklashtirish va individuallashtirish, xarakterlarni tasvirlash yo‘llari, uslubi va she’r tuzilishidagi o‘ziga xosliklar bilan ham mumtoz dostonlardan farqlanib turadi”2.

Iste’dodli shoir Sirojiddin Sayyid ijodiy faoliyati davomida ko‘plab dostonlar yaratdi. Bu dostonlar janr xususiyatlarini o‘zida namoyon etishi, syujet va kompozisiya tuzilishidagi o‘ziga xosliklar, dostonlarga asos qilib olingan mavzular jihatidan ancha rang-barang. Ana shunday dostonlardan biri shoir “Asarlar”i 3-jildidan o‘rin olgan “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostonidir.

1Султонов Иззат, Адабиёт назарияси, Қайта ишланган ва тўлдирилган нашри, дарслик, “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент, 2005 й. Б.180.

2Худойбердиев Эркин, Адабиётшуносликка кириш, Дарслик, “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2008 й. Б.240-241.

Dostonning kompozision tuzilishi o‘ziga xos. Epik asarlarda syujet va uning bo‘laklari kompozision tugallikda joylashishi va asar bosh g‘oyasining badiiy ifoda etilishiga xizmat qilishi kerak. Liro-epik asarda bu tartib birmuncha erkin bo‘ladi. Ba’zi dostonlar lirik qahramonning o‘y-kechinmalari, voqelikni o‘ziga xos mushohada etish asosiga quriladi. Asarning yaxlit syujeti ana shu his-tuyg‘ularning badiiy poetik ifodasiga bo‘ysunadi. Sirojiddin Sayyid dostonining syujetini Bobur ijodi olamiga sayohat, ham shoir, ham shoh ulug‘ insonning hayotidagi eng muhim voqealarning asarlaridagi ifodasi, ularning mag‘zini chaqish va badiiy umumlashma xulosalar chiqarish tashkil etadi. Asarning muqaddimasida o‘z ijodiy niyatini bayon etgan muallif ustozlar tajribasidan ilhom olganligi, “mardlik va matonat, g‘urbatu firoq, mehnatu alamlarga to‘la umrning yuz lahza, yuz holatini”[3] ifodalab berishga harakat qilganligini ta’kidlaydi. Janrni belgilashda doston janri yo‘sinidagi bir urinish ekanligini aytadi.

Hassos shoir Omon Matjon bundan ancha yillar avval “Xamsa”ni o‘rganishga bag‘ishlangan “Ming bir yog‘du” asarini ma’rifiy doston deb kitobxonlarga taqdim etgan edi. Unda Navoiyning buyuk daho san’atkor ekanligini “Xamsa” asarida kuylangan g‘oyalar, ona tilimizning jozibasini namoyon etgan o‘lmas satrlar mag‘zidagi ma’nolarni chaqish, so‘z sehridan bahra olish, lazzatlanish, inson ma’naviy-ruhiy olamini boyitishdagi behad va bebaho hissasini ochib berishga qaratgan. “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” ham ma’rifiy doston. “Boburnoma”ni mutolaa qilish asnosida qahramon(lirik qahramon, ayni paytda u shoirning o‘zidir) shoh va shoir Boburning hayotida kechgan voqealar, asarlarining tug‘ilishiga turtki bergan holatlar, buyuk davlat arbobining iztiroblari, Vatan sog‘inchidan o‘rtanishi, o‘zi asos solgan ulug‘ mamlakatda adolat o‘rnatish uchun chekkan zahmatlari, dilbar g‘azallari dunyoga kelgan chog‘da tuygan ilhom lazzatlari mushohada etiladi, XVI asr o‘zbek nasrining noyob yodgorligi, jahon

3 Саййид Сирожиддин, Асарлар, III жилд, “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2019 й. Б. 165.

adabiyotida tarixiy-biografik, memuar asarning nodir namunasini o‘rganish, saboq olish, dillarga jo qilish bugungi avlodning vazifasi ekanligi uqtiriladi. Buning uchun “Boburnoma”dan parcha keltiriladi va bu parcha lirik yo‘sinda tahlil etiladi. Tahlilda shoir buyuk bobokalonimizning shaxsiga xos fazilatlar ulug‘lanadi, olim sifatidagi donoligi, sarkarda sifatidagi jasoratli ekanligi, shoh sifatida adolatparvarligi, oddiy shaxs sifatida soddaligi, qalbi ishqqa, muhabbatga to‘liqligi ochib beriladi. Bunda doston muallifi “Boburnoma”da aytilgan fikrlarga o‘z munosasabatini bildiradi, ulardan kelib chiqadigan xulosalarni umumlashtiradi. Asar 2005-2009 yillarda yozilgan. Ammo muqaddima 2009 yilda, dostonning asosiy qismi nihoyasiga yetkazilgandan keyin kiritilgan. Muqaddimadan keyin berilgan “Avlod va ajdod” she’ri shoir badiiy-estetik maqsadining she’riy ifodasi bo‘lgan. Shundan keyin “Boburnoma” tahliliga o‘tiladi. “Boburnoma”ning ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, doston muallifi uni taqdirnoma, jabrnoma, harbiynoma, kabirnoma, botirnoma, xotirnoma, sabrnoma deb ta’riflaydi. Bunday xulosaga sabab Boburning o‘zi buni e’tirof etadi:

“Bu bitilganlardan g‘araz shikoyat emas, rost hikoyatturkim, bitibturmen. Bu mastur bo‘lg‘onlardin maqsud o‘zning ta’rifi emas, bayoni voqii bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so‘zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqiini tahrir etilgay. Lojaram ota-og‘adin(ini-og‘adin) har yaxshiliq va yomonlig‘kim shoyi’ edi, taqrir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hunarkim bayoni voqi’ edi, tahrir ayladim. O‘qig‘uvchi ma’zur tutsun, eshitguvchi taarruz maqomidin o‘tsun”[4].

“Boburnoma”da aytilgan voqea, biror shaxs to‘g‘risida ma’lumot, biror tarixiy voqeaga munosabatga shoir ham o‘z munosabatini bildiradi. Bunda shoirning ruboiylari, g‘azallari, muxammaslariga murojaat qiladi, o‘zining lirik badiiy xulosasini taqdim etadi. Bobur otasi Umar shayx Mirzo haqida ma’lumot beradi.

4 Саййид Сирожиддин, Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Достон, Асарлар, III жилд, Тошкент, “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019 й. Б.168.

Uning “Shohnoma”ni o‘qishi, she’r o‘qishni yaxshi ko‘rsa ham she’r yozmasligini aytgan. Bu fikrni lirik asoslash uchun dostonda ikkita ruboiy keltirilgan. Ularda “Shohnoma”ni mutolaa qilishni sevgan shohning o‘g‘li payti kelib buyuk bir mamlakatning “Shohnoma”sini yaratganligidan faxrlanadi. Boburning 12 yoshida Andijon taxtiga o‘tirgani taqdir taqozosi bo‘lganligi har bandi olti misradan iborat besh bandlik she’rda ifodalangan. Unda

Umr tulpor esa–yollardir yillar,
Bundan so‘ng kechgaydir yollarda yillar[5]

degan chiroyli tashbeh bor. Yoki Andijon taxti qo‘ldan ketgan, do‘stlari dushmanlarga aylanib chorasiz qolgan Boburning bahor ayyomi boshlanganda ham ko‘ngliga chiroq yoqsa yorishmaydigan tushkun kayfiyatining mahsuli bo‘lgan “Bahor ayyomidir” g‘azaliga bog‘langan muxammas Boburning o‘sha paytdagi ruhiy holatini yana ham yorqinroq ochib berishga xizmat qilgan.

Bobur tarixchi, geograf, botanik, zoolog kabi sifatlarga ega bo‘lgan. Bu sohalar bo‘yicha o‘z davrining bilimlarini puxta egallagani asarida keltirilgan voqealar tafsilotlari tasdiqlaydi. Xo‘jand bilan Konibodom oralig‘ida joylashgan Hodarvesh dashti toponimi to‘g‘risida qiziqarli ma’lumot beradi. Dostonda ana shu dasht nomiga bag‘ishlangan she’rda “Ho, darvesh” degan chaqiriq Bobur iltijosi yanglig‘ jaranglaydi. Boburning ko‘p sarson-sargardonliklar orasida Axsiga kelib otasining mozorini ziyorat qilganligi haqida yozilgan “Andijon ko‘rinadir” g‘azali shoh va shoirning o‘sha paytdagi iztiroblari, alam va dardlarini yana ham to‘liqroq ifodalaydi:

Toju taxtdin jonlarim
bo‘g‘zimga kelmish shunchalar,
Ey dahr, tobutlaring

5 Ўша асар, Б.173.

taxtu ravon ko‘rinadir.6

Mirzolarning tiyiqsizliklari, qitmirliklari, ayshga berilganliklarini afsus va nadomat bilan aytgan Bobur Temur saltanatining shon-shavkati, uning davlatni boshqarish dasturi bo‘lgan “Tuzuklar” yaratgani, Samarqandning go‘zal shahar ekanligi, bu yerda novvoylik, oshpazlik hunari mashhurligi, eng sifatli qog‘oz tayyorlanishi, olis ellarga ham yetkazib beriladigan matolari borligi, fayzu tarovatga boy bog‘lari, gulu gulzorlari shaharga hamisha zeb berib turishidan faxrlanib yozadi. “El tavri” bobida Boburning eldan ko‘rgan jabr-sitamlari “Boburnoma”dan keltirilgan parchadan ayon bo‘ladi. Otini mingan, to‘nini kiygan, qornini to‘yg‘azgan ba’zi nokaslar unga xiyonat qilganidan ranjiganligi aytiladi bu parchada. Bu hol shoirning ijodiga ham ta’sir qiladi, tushkun kayfiyatdagi she’rlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. “Ulfatim el ichra ozdur, ko‘pdur el javri manga, Ne mening tavrim yoqar elga, ne el tavri manga”7, desa, yana bir she’rida: “Go‘shaye tutsam, jahonning elidan g‘am ko‘rmasam, Istaram el ko‘rmasa meniyu men ham ko‘rmasam”8, degan misralar shoir ahvol-ruhiyasini juda aniq va ravshan ifodalagan. Bu holatga munosabatini bildirgan doston muallifi shoirning o‘sha paytdagi holatini, ranju alam chekkanligining sababini masnaviyda yana ham to‘laroq aks ettirishga erishadi. Unda Boburning el tavri(ahvoli, ko‘rinishi, xulq-atvori) to‘g‘risida iztirob bilan yozganlariga hamohang bu afsus va nadomatni yanada kuchaytiruvchi badiiy vositalarni qo‘llaydi. Elni ko‘rishni istamagan, el ham uni ko‘rishni istamasligini xohlagan shoir dardlariga masnaviydagi mana bu misralar hamohang va aslida nima uchun shunday hol ro‘y berganligini izohlashga xizmat qiladi:

Xojami, rojami, sohibmisan, el?

---

6 Саййид Сирожиддин, Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Достон, Асарлар, III жилд, Тошкент, “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019 й. Б.177.

7 Ўша асар, Б.191.

8 Ўша ерда, Б.192.

O‘zing o‘z holingdin voqifmisan, el?
...Fisqu fasodingda qilmaydursan farq,
Goh g‘iybatga g‘arqsan, goh chog‘irga g‘arq.
...O‘tib bormoqdaman ko‘zda sel aro,
G‘ofil, bemuruvvat, johil el aro.9

Doston boshdan-oxir “Boburnoma”da Bobur tilidan aytilgan tarixiy voqealar, tabiiy-geografik ma’lumotlar, tinimsiz safarlar, jangu jadallar chog‘ida tug‘ilgan taassurotlar, ko‘ngil va ruhga taskin berish maqsadida ijodga sho‘ng‘ib, go‘zal va betakror g‘azallar, ruboiylar dunyoga kelganligi, shoh va shoirning hayoti va ijod yo‘lida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar, dalillar mazmun-mohiyatiga murojaat qilish, ularning asl mag‘zini chaqishga urinish, munosabat she’riy satrlarda doston bosh badiiy-estetik maqsadini ochib berishga xizmat qildirilgan. Asar “Boburnoma”ni o‘qish, tushunish, shoh va shoir siymosini kashf etish, butun umri tahlikalarga boy jang-jadallarda o‘tgan shaxsning kelajak avlodlarga g‘oyat boy adabiy, ilmiy meros qoldirganligini anglash, his etishga da’vat dostonning butun arteriyasida jo‘shib turadi. Asar so‘ngidagi bu misralar dostondan ko‘zda tutilgan g‘oyaviy maqsadni yana ham aniq ifodalaydi:

Toki aylanarkan charxi gardunlar,
Bordir mamlakatni tutgan ustunlar.
Toki tilim so‘ylar, ochiq ko‘zim bor,
Mening nasllarga aytar so‘zim bor–
O‘rnimdan bu zamon qo‘pib ayturman,
Bobom qilichini o‘pib ayturman:
Garchi olam doim adovatdadir,
Kuch adolatdadir, adolatdadir!10

9 Ўша ерда, Б.192-193.

10 Ўша ерда, Б.301.

“Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni Sirojiddin Sayyid she’riy asarlari orasida alohida o‘ringa ega. Unga badiiylik jilolari yana ham zeb berib turibdi. Ular bizga Boburni o‘qish, tushunish, anglash, his etish, saboq olish bugungi mustaqillik zamonida yana ham zarur, aziz va muqaddas vazifa ekanligini uqtiradi.